

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Сарибоев Нурали Абдуназарович, Преподаватель кафедры «Педагогика и психология» Гулистанский государственный педагогический институт

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье раскрываются теоретические и практические основы развития инновационно-творческой деятельности студентов на основе компетентностного подхода. В современной системе образования особое значение приобретает формирование компетенций инновационного мышления, креативности и самостоятельного принятия решений. В исследовании проанализированы сущность компетентностного подхода, его роль в образовательном процессе, а также методические возможности развития творческого потенциала студентов. Кроме того, рассмотрены педагогические технологии и интерактивные методы, способствующие формированию инновационной деятельности.

ЦЕЛЬ: определить педагогические возможности компетентностного подхода в развитии инновационно-творческой деятельности студентов, научно обосновать эффективные методы формирования инновационного мышления, креативности и компетенций самостоятельной деятельности, а также разработать практические рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования были проанализированы научные источники по педагогике, инновационному образованию и компетентностному подходу, нормативно-правовые документы, а также передовой зарубежный и отечественный опыт. В работе использовались методы теоретического анализа, сравнительного сопоставления, системного подхода, педагогического наблюдения, анкетирования, беседы и обобщения. Кроме того, были изучены результаты практических занятий и проектной деятельности, направленных на развитие инновационно-творческой активности студентов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что компетентностный подход эффективно способствует развитию у студентов инновационного мышления, навыков решения проблем, создания креативных идей и их практической реализации. Было установлено, что проектное обучение, анализ проблемных ситуаций, использование интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий способствуют повышению инновационной активности студентов. Также определено, что поддержка самостоятельного поиска, критического мышления и творческого подхода студентов в образовательном процессе является важным фактором формирования инновационных компетенций.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: компетентностный подход является важной педагогической основой развития инновационно-творческой деятельности студентов. Благодаря данному подходу у студентов формируются навыки креативного мышления,



разработки инновационных идей и их внедрения в практику. В связи с этим широкое применение инновационных образовательных технологий и интерактивных методов, основанных на компетентностном подходе, в высших учебных заведениях способствует профессиональному и личностному развитию студентов.

Ключевые слова: компетентностный подход, инновационная деятельность, креативность, творческое мышление, образовательные технологии, компетентность студента, инновационное образование, педагогические методы.

DEVELOPING STUDENTS' INNOVATIVE AND CREATIVE ACTIVITY BASED ON THE COMPETENCY-BASED APPROACH

Nurali Abdunazarovich Sariboyev, Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract

INTRODUCTION: this article highlights the theoretical and practical foundations of developing students' innovative and creative activity based on the competency-based approach. In the modern education system, the formation of competencies related to innovative thinking, creativity, and independent decision-making is of great importance. The study analyzes the essence of the competency-based approach, its role in the educational process, and its methodological potential for developing students' creative abilities. In addition, pedagogical technologies and interactive methods that contribute to the formation of innovative activity are examined.

AIM: to identify the pedagogical potential of the competency-based approach in developing students' innovative and creative activity, to provide a theoretical foundation for effective methods of fostering innovative thinking, creativity, and independent activity competencies, and to develop practical recommendations.

MATERIALS AND METHODS: the research involved the analysis of scientific literature on pedagogy, innovative education, and the competency-based approach, as well as regulatory documents and advanced international and national practices. The study employed theoretical analysis, comparative analysis, a systematic approach, pedagogical observation, questionnaires, interviews, and generalization methods. Furthermore, the results of practical training sessions and project-based activities aimed at developing students' innovative and creative activity were examined.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings revealed that the competency-based approach effectively contributes to the development of students' innovative thinking, problem-solving abilities, creativity, and the practical implementation of ideas. It was determined that project-based learning, problem-solving activities, interactive teaching methods, and the use of information and communication technologies enhance students' innovative engagement. The study also showed that supporting students' independent inquiry, critical thinking, and creative approaches in the educational process is an important factor in developing innovative competencies.

CONCLUSION: the competency-based approach serves as an important pedagogical foundation for developing students' innovative and creative activity. Through this approach, students acquire skills in creative thinking, generating innovative ideas, and implementing them in practice. Therefore, the widespread application of innovative educational technologies and interactive methods based on the competency-based approach in higher education institutions contributes significantly to students' professional and personal development.

Keywords: competency-based approach, innovative activity, creativity, creative thinking, educational technologies, student competence, innovative education, pedagogical methods.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, ijodiy faollik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasidagi asosiy jarayon talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati hisoblanadi. Shunday qilib, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati, bir tomondan, faoliyat turi sifatida, ikkinchi tomondan, talabalarning mustaqil faoliyatiga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan voqealar tizimi yoki pedagogik shartlarsifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi va innovatsion faoliyatga tayyor kadrlarni tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimiga keng joriy etilmoqda.

An'anaviy bilim berishga asoslangan yondashuv o'rniga bugungi kunda talabaning bilimni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu esa bevosita kompetensiyaviy yondashuv bilan bog'liq bo'lib, u talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini integratsiyalashgan holda shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning innovatsion-ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan J.Raven, L.Spencer, R.Boyatzislar o'zlarining ilmiy ishlarida kompetensiya tushunchasini shaxsning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar majmui sifatida talqin etganlar.

Yevropa ta'lim tizimida "Kalit kompetensiyalar" tushunchasi keng qo'llanilib, u talabalarning hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlaydi.

MDH va O'zbekiston olimlari tomonidan ham kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra:

- kompetensiya – bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash qobiliyati;
- kompetentlik – shaxsning real faoliyatdagi samaradorligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, kreativlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha E.Torrance, J.Guilford kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular kreativ fikrlashni muammoli vaziyatlarda yangi va original yechim topish qobiliyati sifatida izohlaydilar.

Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning samarali usullari aniqlanib, ularning amaliy qo'llanishi asoslab berildi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kompetensiyaviy yondashuv asosida ijodkorlik qobiliyatidan samarali foydalangan holda kasbiy pedagogik faoliyatdagi ijodkorlik muammosini o'rganishda uning tarkibiy komponentlari ijodiy faoliyat jarayonida shakllanadigan nostandart muammolarni hal qilish ko'nikmalarini tashkil etadi. Shu sababli, talabaning oliy ta'lim muassasasidagi o'qish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish zarur, chunki aynan shu bosqichda uning ijodiy qobiliyati takomillashadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ijodiy va pedagogik faoliyat turlari bo'yicha talabaning ijodkorlik qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan jarayonlarni tashkil etishda zamonaviy ta'lim tizimida foydalaniladigan ta'lim texnologiyalari sohasidagi eng yaxshi yutuqlariga asoslanish, shuningdek zamonaviy bilim, malakalar va kompetensiyalarni singdirish zarur.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ijodiy qobiliyatning takomillashishiga ko'p jihatdan ijodiy faoliyatda muammoli vaziyatlarni yaratish yordam beradi, chunki u to'g'ridan-to'g'ri ijodiy fikrni, shaxslararo ijodiy muloqotni va o'quv mavzusi materialini o'zlashtirishda ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Muammoli o'qitish talabalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ijodiy yondashuv bilan ishtirok etishiga, kognitiv mustaqillik va ijodiy fikrlashning rivojlanishiga, ularning motivatsiyasining yuqori darajasiga va bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot ishi jarayonida kompetensiya va ijodkorlik tushunchalarini qo'llash davomida biz uchun o'sha mashhur uchta atama: bilim, ko'nikma, malaka so'zlari bilan bog'liqligiga guvoh bo'lish mumkin. "Kompetensiya" tushunchasi ularning davomi sifatida bo'lib, rivojlanishiga ko'ra u quyidagicha ta'riflanadi: mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda mustaqil qo'llay olish qobiliyatidir.

Aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda "kompetentlik" atamasiga quyidagicha ta'rif beramiz – "Kompetentlik bu – muayyan mutaxassisning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini belgilovchi asosiy mezonidir". "Kompetensiya" ta'rifiga kelsak,

bizning talqinda bu – “yangi qiymat yaratish maqsadida bilimlar manipulyatsiyasi jarayonida dividend olishga erishilganlik ko’rsatkichidir”.

Kompetensiyaviy yondashuv – bu ta’lim jarayonini natijaga yo’naltirilgan holda tashkil etish bo’lib, bunda asosiy e’tibor talabaning quyidagi qobiliyatlariga qaratiladi:

- mustaqil fikrlash;
- muammoni hal qilish;
- innovatsion yondashuv;
- ijodiy faoliyat yuritish.

Bu yondashuvda talaba passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qaraladi.

Innovatsion-ijodiy faoliyat – bu yangi g’oyalar yaratish, ularni amaliyotga joriy etish va muammolarga noodatiy yechim topish jarayonidir. Talabalarda ushbu faoliyat kreativ fikrlash, analitik tafakkur, refleksiya, tashabbuskorlik va boshqa komponentlardan iborat. Kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Bilim bosqichi – nazariy bilimlarni egallash
- Ko’nikma bosqichi – amaliy mashg’ulotlar
- Ijodiy bosqich – mustaqil loyihalar
- Innovatsion bosqich – yangi g’oyalarni ishlab chiqish

Umumiy ma’noda amaliy natijalarga erishish natijasida talabalarda mustaqil fikrlash shuni ko’rsatdiki:

- kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim samaradorligi oshadi;
- talabalar mustaqil fikrlashga o’rganadi;
- kreativ va innovatsion faoliyat faollashadi;
- kasbiy tayyorgarlik darajasi yaxshilanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida o’qitishning joriy etilishi talabalarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirishning yana bir samarali vositasidir. Haqiqiy ehtiyojlar va muammolarga asoslangan kompetensiyalar talabalarni faol ravishda yechim izlashga va nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llashga undaydi, bu esa materialni chuqur o’zlashtirishga va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarning innovatsion va ijodiy faoliyatini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida rivojlantirish diqqatni bilimlarni passiv egallashdan yangi vaziyatlarda qo’llash qobiliyatiga o’tkazadi. Bunga talabalarda asosiy kompetensiyalarni: mustaqillik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va noan’anaviy muammolarni hal qilishga tayyorlikni rivojlantiruvchi faol ta’lim usullari, STEAM ta’limi va loyihaga asoslangan faoliyat orqali erishiladi. Bu talabalarni tez o’zgaruvchan muhitga tayyorlash uchun loyiha asosida o’qitish, interfaol o’qitish usullari va AKTdan foydalanishni o’z ichiga oladi. Ushbu yondashuv ta’limni talabalarga original g’oyalarni yaratish, murakkab muammolarni hal qilish va bilimlarni qo’llash, XXI asr ko’nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Talabalar rivojlanishining asosiy jihatlari:

- Faol ta'lim usullari: Loyihaga asoslangan ta'lim, amaliy tadqiqotlar va seminarlarni amalga oshirish talabalarni nazariy bilimlarni qo'llashga undaydi, ularning noyob, amaliy echimlarni ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradi.

- Mustaqil faoliyat: Mustaqil va ijodiy mehnatni rivojlantirish, o'quvchilarga o'z bilimlarini egallashga va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beruvchi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT): AKTdan foydalanish o'quv jarayonida texnik kompetentsiyani rivojlantirish va ijodiy tadqiqot qobiliyatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

- Reflektiv amaliyotlar: Ijodiy jurnallar va raqamli portfellardan foydalanish talabalarga ularning intellektual o'sishini kuzatish imkonini beradi, bu esa metakognitiv ongni rivojlantiradi.

- Fanlararo yondashuv: Turli akademik sohalarni aralashtirish fikrlashda moslashuvchanlikni va bilimlarni yangi vaziyatlarga o'tkazish qobiliyatini rag'batlantiradi.

- Yondashuv maqsadlari: nafaqat akademik bilimlarni, balki o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy dunyoga moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantirish.

- Ijodkorlik: fanlarni integratsiyalash (masalan, STEAM) muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni rag'batlantiradi, innovatsiyalar uchun muhim bo'lgan ijodkorlikni rivojlantiradi.

- Natija: Yodlashdan kompetensiyalarni rivojlantirishga o'tish, talabalarga kelajakda kasbiy sohada egallagan tajribalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirish uchun o'qituvchi rolini bilim beruvchidan fasilitatorga o'tkazish, o'quvchilarning tadqiqot va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Ijodkorlikni rivojlantirishni tashkil etish shakllari:

- Loyihaga asoslangan ta'lim: tadqiqot loyihalari, ma'lumot beruvchi va ijodiy loyihalar (masalan, film yaratish yoki yozish) yanada chuqurroq ishtirok etish uchun ishlatiladi.

- Interfaol seminarlar: "Sindikat" va rol o'ynash kabi usullardan foydalanish kommunikativ va ijtimoiy kompetentsiyalarni yaxshilashga yordam beradi.

- Master-klasslar: Ushbu qisqa muddatli professional treninglar muayyan texnik yoki badiiy mahoratni rivojlantirish uchun samarali.

Maqsad - bilimlarni amaliy, ijodiy qo'llash orqali murakkab kasbiy va shaxsiy vaziyatlarni boshqarishga qodir "Barkamol shaxs"ni tarbiyalash.

Xulosa sifatida aytish joizki, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u talabalarning innovatsion-ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi:

- kompetensiyaviy yondashuv talabani shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi;
- innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar samarali hisoblanadi;
- ta'lim jarayonida kreativlikni qo'llab-quvvatlash muhim omildir.

Kelgusida ushbu yo'nalishda raqamli texnologiyalar asosida innovatsion ta'lim modellari ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Xasanova G.K. Universitet talabalarining ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Fan va ta'lim byulleteni. -2021 yil. -Yo'q. 17-3 (120). -P. 68-71.
2. Xasanova G.K. Ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarining ijodkorligini shakllantirish usullari // Miasto Przyszłości. -2023 yil. -Jil. 42. -P. 337-339.
3. Umurov Z. L., Xasanova G. K. Talabalar ta'lim muassasalarida ijtimoiy faoliyatni rivojlanishning pedagogik asoslari // Fan va ta'lim axborotnomasi. -2022. -Yo'q. 2-2 (122). -P. 43-45.
4. Nodira, A. (2023 yil, sentabr). O'quvchilarda kognitiv qobiliyatni rivojlanish muammosi. Yosh o'quvchilarda g'ayrioddiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda fanlarning roli to'g'risida: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya (Chexiya). (80-82-betlar).
5. Baxtiyorovna, A. N. (2023). Muammoli texnologiyalar va uni o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 11, 27-31.
6. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work. New York, 1993.
7. Torrance E.P. Creativity in Education. New York, 1970.
8. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. Toshkent, 2016.
9. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2012.
10. Ishmuhammedov R. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2018.
11. Xoligov A. Pedagogik mahorat. Toshkent, 2014.